



2025-yil 31-dekabr, 273-son

SIYOSAT

YANGI O‘ZBEKISTON



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

ZAMONAVIY LOYIHALAR ASOSIDAGI BUNYODKORLIKLAR YANGI TOSHKENTNING STRATEGIK AHAMIYATINI OSHIRADI

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz ushbu kutubxona Yangi Toshkentda barpo etilayotgan ta’lim va ma’rifat maskanlarining tizimida muhim o’rin tutib, yosh avlodning intellektual rivoji uchun mustahkam zamin bo’lishini ta’kidladi. Ilm-fan va ma’naviyatga sarmoya kiritgan davlatning iqtisodiy salohiyati ham barqaror va yuqori bo’lishi qayd etildi.

Zamonaviy kutubxona imkoniyatlaridan to’laonli foydalanish uchun xodimlar axborot texnologiyalari va xalqaro standartlarni chuqur o’zlashtirishi zarurligiga e’tibor qaratildi.

Yangi Toshkentda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishuv davomida Prezident Shavkat Mirziyoyev Chirchiq daryosi ustidan yangi ko’priklarni hamda metro bekati bilan birlashtirilgan avtoturargoh barpo etish ishlari ko’zdan kechirdi.

Poytaxt va Yangi Toshkent o’rtasida transport aloqalarini mustahkamlash, transport oqimini samarali boshqarish hamda aholi uchun qulay harakat muhitini yaratishga qaratilgan mazkur loyihalar shahar infratuzilmasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi ko’priklarni Toshkent va Yangi Toshkentni bog’laydi. Bir sutkada 40-50 mingta avtotransport vositasini o’tkazish quvvatiga ega bo’ladi. Qurilish ishlari joriy yil oxirida boshlangan bo’lib, ayni paytda kelib loyihaning dastlabki qismi amalga oshirilmoqda.

Loyiha doirasida atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sohil hududlari ko’kalamzorlashtiriladi, energiya tejamlor yoritish tizimlari o’rnatiladi, piyodalar va velosiped yo’laklari barpo etiladi. Shuningdek, ko’priklarni ikki tasmali tramvay yo’li yotqizilishi rejalashtirilgan.

Yangi Toshkentni Toshkent shahri bilan bog’laydigan ko’lajak metro liniyasining uzunligi 21 kilometrni tashkil etib, 9 ta zamonaviy bekati o’z ichiga oladi. U kuniga 230 ming nafar yo’lovchiga xizmat ko’rsatish imkoniyatiga ega bo’ladi. Liniya poytaxt metrosining mavjud tarmoqlari bilan to’liq integratsiya qilinadi, bu esa yo’lovchilar uchun yagona va uzluksiz transport tizimini shakllantiradi.

Davlatimiz rahbari ko’lajak liniyaning avtoturargoh bilan integratsiyalashgan bekatlaridan birining qurilish jarayoni bilan tanishdi.

Metro bekati bilan integratsiyalashgan avtoturargoh 20 ming kvadrat metr maydonda barpo etiladi, unda avtomobillar, piyodalar va jamoat transporti harakati aniq ajratilib, xavfsizlik va funksionallikka ustuvor ahamiyat beriladi.

Ayni paytda hududda yer ishlari va beton quyish ishlari olib borilmoqda. Majmua 2027-yilda foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Prezidentimiz loyihalarning Yangi Toshkent uchun strategik ahamiyatini ta’kidlab, qurilish ishlari belgilangan muddatlarda, yuqori sifatda amalga oshirish bo’yicha o’z tavsiyalarini berdi.

Davlatimiz rahbari Yangi Toshkent shahrini barpo etish direksiyasiga ham tashrif buyurib, hududda amalga oshirilayotgan va istiqboldagi yirik qurilish loyihalarini taqdimoti bilan tanishdi.

Mazkur shahar qurilishiga 2023-yilda tamol toshi qo’yilgan edi. Loyiha uchun Yuqori va O’rta Chirchiq tumanlaridagi jami 19 ming 700 gektar yer maydoni ajratilgan. Konsepsiya Britaniyaning “Cross Works” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Ayni paytda bu yerda 100 dan ziyod katta-kichik loyihalar jadal olib borilmoqda. Har bir tashabbus xalqaro me’yorlar va zamonaviy shaharsozlik tendensiyalariga asoslanadi.

Hozirga kelib, dastlabki inshootlar mahobati ko’rina boshladi. Yakuniga yetayotgan 2025-yilda yangi shaharda olib borilayotgan qurilish maydonlari 3 million kvadrat metrga yetdi.

Bir qancha uy-joy massivlari qurilishi yakuniy bosqichga kirdi. Infratuzilma obyektlarida ishlar jadal bormoqda.

Birinchi bosqichda 6 ming gektar hududda qurilish ishlari bajariladi. Natijada 600 ming aholi uchun zamonaviy infratuzilma barpo etilishi belgilangan. Loyiha to’liq yakunlanganda esa Yangi Toshkent 2 million nafar odam yashaydigan ulkan megapolisga aylanadi.

Bunday ko’lamdagi qurilish uzoq muddatli va barqaror infratuzilmani talab qiladi. Hozirgi paytda hududda yirik yer osti muhandislik tarmoqlari qurilmoqda. Bir va ikki seksiyali kollektorlar yotqizilib, issiqlik,

suv, elektr energiyasi va telekommunikatsiya kabi barcha tarmoqlarning yer ostidan o’tkazilishi ta’minlanmoqda.

Transport qatnovini yengillashtirish maqsadida olib borilayotgan ishlarga alohida to’xtalib o’tildi. Tunnel va yer osti avtoturargohlarining barpo etilishi shaharning kelajakdagi harakatlanish tizimi uchun muhim ekani qayd etildi.

Hududda o’n kilometrlik sohil bog’i tashkil etildi. Bir million tup buta va ko’chatlar ekildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan shaharsozlikda “yashil” tamoyillar muhim o’rin tutishi lozimligi aytiladi. Bunda metro va elektrobuslar harakatini muvofiqlashtirish, piyoda va velosipedchilar uchun xavfsiz, to’siqsiz yo’laklar barpo etilishi bo’yicha mas’ullarga qo’shimcha topshiriqlar berildi.

Hududda 60 dan ortiq davlat idoralari uchun zamonaviy ma’muriy binolar quriladi. Ayni vaqtda qator vazirlik va idoralar vaqtincha majmualarda faoliyat boshlagan.

Investorlarning faolligi ham yuqori. Auktsion orqali sotilgan 24 ta tijoriy lot bo’yicha 2 milliard dollarlik investitsiya shartnomalari imzolangan. Bu mablag’lar hisobidan mehmonxonalar, restoranlar, servis markazlari va o’ziga xos arxitektura ega zamonaviy binolar barpo etiladi.

Ayni paytdagi qurilish jarayonining o’zida 10 ming nafar insonning bandligi ta’minlangan. Loyiha to’liq amalga oshirilganidan keyin esa innovatsion texnologiyalarga asoslangan, yuqori daromadli yuz minglab doimiy ish o’rinlari yaratilishi kutilmoqda.

Prezidentimizga Yangi Toshkentda barpo etilayotgan turizm obyektlari, xizmat ko’rsatish va dam olish majmualari, shuningdek, mamlakatimizning boshqa hududlarida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan yirik investitsiya va infratuzilma loyihalarini to’g’risida ma’lumot berildi.

Davlatimiz rahbari har bir tashabbusda ilm-fan yutuqlariga tayanish, loyihalarda mahalliy ruhni aks ettirish, eng asosiysi, ular xalq manfaatiga xizmat qilishi lozimligini ta’kidladi.

Ziyodulla JONIBEKOV, Ikrom AVVALBOYEV, Abdulaziz RUSTAMOV, Marhabo HOJIAKBAROVA, O’ZA maxsus muxbirlari

uchinchidan, barcha samaradorlik ko’rsatkichlarining bajarilishi 2030-yilgacha yilma-yil belgilandi. Ya’ni har bir ijobiy o’zgarishni yillar kesimida ko’rish imkoniyati yaratildi;

to’rtinchidan, strategiyada har bir vazirlik va idora o’z o’imini topdi. Xususan, loyihaga ko’ra, 60 taga yaqin davlat organlariga tegishli samaradorlik ko’rsatkichi belgilandi; **beshinchidan**, har bir samaradorlik ko’rsatkichiga erishilishini ta’minlaydigan moliyaviy manbalar aniq ko’rsatildi;

oltinchidan, endi soha, tarmoq va hududlarni rivojlantirish konsepsiya va strategiyalari “O’zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq holda ishlab chiqilishi qat’iy belgilanadi. Jumladan, keyingi yil 50 tadan ziyod shunday konsepsiya (4 ta), soha va tarmoqlarni rivojlantirish strategiyalari (38 ta) hamda har bir hududni rivojlantirish strategiyalarini (14 ta) qabul qilish rejalashtirilgan.

Umuman, strategiyadagi samaradorlik ko’rsatkichlariga erishish barcha darajadagi tashkilotlarning eng ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Prezidentimiz topshirig’iga muvofiq, yurtimizning kelgusi besh yillik taraqqiyotiga daxldor bo’lgan ushbu hujjat keng jamoatchilik muhokamasidan o’tkazilib, aholimizning fikr-mulohazalari asosida takomillashtiriladi.

Shunga ko’ra, takomillashtirilgan strategiya loyihasi uzbekistan2030.uz va regulation.gov.uz platformalarida jamoatchilik muhokamasiga qo’yildi. Barcha yurtdoshlarimizni farovon turmushimiz va taraqqiyotimiz asosi bo’lgan strategiya muhokamasida faol ishtirok etib, fikr bildirishga chaqiramiz.

Sanjar ESHMURODOV, “Yangi O’zbekiston” muxbiri



Munosabat

“

Mahalla rivojlansa, jamiyat yuksaladi. Milliy birdamlikning eng mustahkam qal’asi ham aynan shu yerda — mahallada qaror topadi.



MILLIY BIRDAMLIKNING MUSTAHKAM QAL’ASI

Qahramon QURONBOYEV, O’zbekiston mahallalari uyushmasi raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

Prezidentimizning Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga Murojaatnoma yo’llash amaliyoti yangi O’zbekiston sharoitida davlat boshqaruvi va siyosiy madaniyatning ajralmas qismiga aylandi. 2017-yildan boshlangan ushbu an’ana o’tgan yil natijalarini xolis baholash, mamlakat taraqqiyotining muhim strategik yo’nalishlari hamda kelgusidagi vazifalarni aniq belgilab olishda samarali siyosiy mexanizm sifatida namoyon bo’lmoqda.

Murojaatnoma, avvalo, davlat rahbarining xalq bilan ochiq muloqoti, jamiyat oldidagi mas’uliyati va hisobdorligining amaliy ifodasidir. Prezidentimiz Murojaatnomalariga xos muhim jihat shundaki, unda hayotdagi muammolar yashirilmay, ro’y-rost aytilmoqda, ularni bartaraf etish bo’yicha aniq choralar ko’rilmogda, moliyaviy manbalar va mas’ul ijrochilar belgilanmoqda. Lo’nda aytganda, ushbu Murojaatnomalar “davlat — xalq uchun”, degan ezuq tamoyilining hayotdagi yaqqol ifodasi bo’lib, barchamizni yangi O’zbekistonda barpo etish yo’lida birlashtirmoqda.

Prezidentimizning Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga yo’llagan navbatdagi Murojaatnomasi mamlakat taraqqiyotining 2026-yilga mo’ljallangan ustuvor yo’nalishlarini belgilab bergani, xalqimizning orzu-umid va intilishlarini ifoda etgani bilan alohida ahamiyatga ega bo’ldi. Davlatimiz rahbari 2026-yilni yurtimizda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb nomlashni taklif etdi va ushbu tashabbus yig’ilish ishtirokchilari, shuningdek, xalqimiz tomonidan keng qo’llab-quvvatlandi.

Bunday nom tanlanishi tasodifiy emas. Uning zamirida yillar davomida to’plangan tajriba, puxta o’yilgan siyosat va mustahkam huquqiy asos mujassam. Murojaatnomada mahalla tizimining o’rni va ahamiyatiga alohida to’xtalib o’tilgani ham buning yaqqol dalilidir. Prezidentimizning “Mahalla va yaxshi qo’shniçilik o’zaro uyg’un qadriyatlaridir. Ular jamiyatda insoniy va ijtimoiy kapitalni yanada boyitishga beqiyos hissa qo’shadi” degan so’zlari so’nggi yillarda mahalla yo’nalishida amalga oshirilgan islohotlar mohiyatini ko’rsatadi.

Mahalla tizimi yangi O’zbekiston islohotlarining markazida turibdi. Harakatlar strategiyasidan boshlab, “Obod qishloq”, “Obod mahalla” dasturlari, “Temir daftar”, “Yoshlar daftar”, “Ayollar daftar” kabi mexanizmlarning joriy etilgani mahalladagi ijtimoiy muammolarni joyida hal qilish imkoniyatini yaratdi. Mahalla tizimi xodimlari kunining belgilangani, avval “uchlik”, keyin “beshlik”, bugun esa “yettilik” tizimining yo’lga qo’yilgani mazkur islohotlarning uzviy davomidir.

Bugun O’zbekiston 38 milliondan ortiq odam yashaydigan ulkan davlatdir. Har yili aholi soni o’rtacha 2 foiz o’sib, 1 milliondan ziyod o’g’il-qizlar katta hayotga qadam qo’yimoqda. Bu raqamlar yangi avlodning ulkan bunyodkorlik salohiyatini ko’rsatadi. Shu bilan birga, murakkab global sharoitda yoshlarni vatanparvar, fidoyi va mas’uliyatli insonlar qilib tarbiyalash, jamiyatni birlashtirishda mahallaning o’rni beqiyos. Ijtimoiy so’rovlar natijasida aholining

90 foizdan ortig’i o’zini mahalla jamoasining ajralmas a’zosi deb hisoblayotgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

“Birlashgan — o’zar, birlashmagan — to’zar”, degan hikmat bugun ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Tarixda xalqimiz eng og’ir sinovlarni mahalla birdamligi orqali yengib o’tgan. Bugun ham turli fikr va qarashlar mavjud bo’lishi tabiiy, ammo millatni birlashtiradigan ulug’ g’oya bitta — Vatan va xalq manfaatidir. Mahalla tinch va ahil bo’lsa, jamiyat ham barqaror bo’ladi. Shu falsafa asosida 2026-yil uchun ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Murojaatnomadagi olti muhim ustuvor yo’nalishdan birinchisi mahalla infratuzilmasini tubdan yaxshilashga qaratildi. Yurt obodligi mahalladan boshlanadi. Yo’l, suv, elektr energiyasi ta’minoti, maktab, bog’cha va tibbiyot muassasalari —

islohotlar samarasi, avvalo, ana shu sohalar orqali his etiladi. Shu bois, 2026-yildan har viloyatda 2-3 ta tuman tanlanib, ulardagi barcha mahallada muammolar kompleks hal qilinadi. Bu tajriba Samarqand viloyatining Urgut tumanidan boshlandi.

2026-yili infratuzilma loyihalarini uchun 20 trillion so’mga yaqin mablag’ yo’naltirilib, bog’cha, maktab, poliklinika, yo’l va muhandislik tarmoqlari yangilanadi. Deputatlar vakolatlari va moliyaviy imkoniyatlari kengaytirilib, har bir okrugda aniq natijaga erishish maqsad qilinadi. Tumanlar byudjetining mustahkamlanishi esa mahalliy tashabbuslarni amalga oshirishda yangi imkoniyatlar ochadi.

Kambag’allikni qisqartirish ham umummilliy harakatga aylandi. “Mahallada sanoat va xizmat” loyihalarini, mikroloyihalar, tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash orqali yuz minglab ish o’rinlari ochiladi. Natijada 2026-yili kambag’allik darajasi sezilarli qisqarib, minglab oilalar farovon hayot sari qadam qo’yadi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O’QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Yig’ilishda bevosita Murojaatnomani tinglar ekanman, shunday qat’iy xulosaga keldim: **xalq — mahalla — vatan** tushunchalari Prezidentimiz amaliy faoliyatining asosiy g’oyasiga, hayotiy formulasiga aylangan. Bu halqaning asosida vatanning mo’jaz parchasi bo’lgan mahallada yashayotgan yurtdoshlarining taqdiriga qayg’urish, oddiy insonlar hayotini tezroq yaxshilash, ularning ehtiyojlarini chuqur anglash, munosib turmush kechirishi uchun zarur shart-sharoit yaratish maqsadi mujassam.

Buning tasdig’i sifatida Prezidentimizning Murojaatnomada bildirgan quyidagi fikrlarini keltirish o’rinli deb o’ylayman: “Farg’ona vodiysidan Orolbo’yigacha, Zarafshon vohasidan Qashqadaryo va Surxondaryogacha, Toshkentdan tortib Jizzax va Sirdaryogacha — yurtimizning qaysi hududida yashamasin, har bir fuqaromiz islohotlar natijasini kundalik hayotida yanada ko’proq his qilishi kerak...”

Yurt obodligi, avvalo, mahalladan boshlanadi. Aynan mahalladagi yo’l, suv, elektr va transport ta’minoti, bog’cha, maktab va oilaviy poliklinikadagi shart-sharoitlarga qarab, odamlar islohotlarimizga baho beradi. Shu bois, mahalla tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi bo’lib kelgan va shunday bo’lib qoladi.

Mahalla infratuzilmasini tubdan yaxshilash orqali biz mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, uning qiyofasini yanada go’zal va obod qilish borasidagi ishlarni davom ettiramiz”.

Zero, mahalla rivojlansa, jamiyat yuksaladi. Milliy birdamlikning eng mustahkam qal’asi ham aynan shu yerda — mahallada qaror topadi.

TAKOMILLASHTIRILGAN “O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI LOYIHASI JAMOATCHILIK MUHOKAMASIGA QO‘YILDI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev joriy yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va ko’p millatli xalqimizga yo’llagan Murojaatnomasida “O’zbekiston — 2030” strategiyasini qayta ko’rib chiqish vazifasini qo’yan edi.

Ta’kidlash joizki, 2023-yilda qabul qilingan bu dasturiy hujjat barcha soha va tarmoqlarda ulkan natijalarga zamin bo’lmoqda. Kambag’allik darajasi 11 foizdan 6,8 foizga, ishsizlik 6,8 foizdan 4,9 foizga tushdi. Yalpi ichki mahsulot hajmi 103 milliard dollardan 145 milliard dollarga yetdi. Eksport hajmi esa 25 milliard dollardan 33,4 milliard dollarga, xorijiy investitsiyalar hajmi 17 milliard dollardan 43 milliard dollarga oshdi. Xorijlik sayyohlar soni 6,6 milliondan 8,6 million nafarga, maktabgacha ta’lim qamrovi 72 foizdan 78 foizga, oliy ta’lim qamrovi 42 foizga, O’zbekiston bilan diplomatik munosabatlar o’rnatgan davlatlar soni 144 tadan 164 taga yetdi.

Shu bilan birga, so’nggi ikki yilda Prezidentimizning 650 dan ziyod farmon va qarori qabul qilindi. Davlatimiz rahbari tomonidan 500 dan ziyod turli darajadagi yig’ilish, uchrashuv va taqdimotlarda barcha sohalar bo’yicha yangi vazifalar qo’yildi.

Masalan, ikki yil oldin 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotimiz hajmini 160 milliard dollarga yetkazish maqsadi qo’yilgan edi. Endi bu marraga 2026-yilning o’zida erishilishi kutilmoqda. Murojaatnomada kelgusi besh yilda iqtisodiyotimiz hajmini 240 milliard dollardan oshirish imkoniyati borligi ta’kidlandi. **Ya’ni yurtimizda barcha sohalarida yuqori marralar olinyapti.**

2023-yilda aholimiz soni 36,7 million nafarni tashkil qilgan bo’lsa, bu ko’rsatkich 2030-yilga borib, 41 milliongacha oshishi

prognoz qilinmoqda. Har bir yangi maqsadni o’rni sishini inobatga olib belgilash ham muhim.

Bundan tashqari, jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlarda tendensiyalar hamda dinamika o’zgarayapti. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt, aholi ehtiyojlari ham yangi qadamlarni, aniq rejalarni kun tartibiga qo’yyapti.

Ushbu o’zgarish va natijalarni hisobga olib, **“O’zbekiston — 2030” strategiyasining takomillashtirilgan loyihasi** ishlab chiqildi. Bu borada mutasaddi vazirlik va idoralar hamda ilmiy markazlarning 350 nafardan ortiq vakillari ishtirokida strategiyadagi barcha 444 ta samaradorlik ko’rsatkichi bugungi kun nuqtayi nazaridan qayta ko’rib chiqildi.

Jumladan, “O’zbekiston — 2030” strategiyasi loyihasi quyidagi jihatlari bilan ahamiyatli:

birinchidan, barcha ko’rsatkichlar davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan yangi marralarga moslashtirildi va to’ldirildi. Bunda, yurtdoshlarimizga munosib sharoit yaratadigan, har bir inson va oila hayotida seziladigan maqsadlarga alohida e’tibor qaratildi;

ikkinchidan, barcha ko’rsatkichlar o’lchanadigan, ya’ni son shaklida (foiz, ulush, daraja, hajm, nisbat, ball, indeks) bo’lishi qat’iy belgilandi. Hisoblab yoki baholab bo’lmaydigan, umumiy vazifa, topshiriq va “shior” ko’rinishidagi ko’rsatkichlar chiqarib tashlandi (bunday bandlar 130 ta);

2 milliard dollarlik 500 dan ziyod turizm hamda servis obyekti ish boshladi. Arnasoy va Zominda 300 million dollar hisobiga 12 oy davomida to'liq ishlaydigan kurort zonalariga ishga tushirildi. Ularda aeroportlar barpo etildi.

Umuman, Jizzax eng jozibador sayyohlik yo'nalishlardan biriga aylandi. Bu o'z o'rnida yangi ish o'rinlarini ochib, aholining iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatini oshirdi. Masalan, 8 yil oldin Jizzaxdagi ish o'rinlarining 42 foizi qishloq xo'jaligiga to'g'ri kelardi. Hozir viloyatdagi 310 mingga yaqin odam sanoat va servis sohalaridagi yuqori daromadli ishlar bilan band. Bularning barchasi yillar davomida amalga oshirilgan islohotlar samarasidir.

BALAND MARRALARGA POYDEVOR, ULKAN MAQSADLARGA QUUVVAT BO'LGAN OY



Boboravshan G'oziddinov, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Dekabrda eng katta voqealardan biri esa, shubhasiz, Prezidentimizning 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasi bo'ldi. 2026-yil yurtimizda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili", deb e'lon qilindi.

Murojaatnoma yo'llashi an'anaga aylanib ulgardi. Yil hali adog'iga yaqinlashmay xalqimiz kun sanab Murojaatnomani kuta boshlaydi. Chunki unda o'tgan yil tahlil etilib, kelgusi marralar belgilab olinadi. Barcha sohada islohotlarning yangi bosqichini belgilab beradigan imkoniyat va imtiyozlar, strategik maqsadlar aytiladi.

Bu safar ham xuddi shunday bo'ldi. Mamlakat yetakchisi Murojaatnoma avvalida: "So'nggi to'qqiz yilda biz sizlar bilan, el-yurtimiz bilan birgalikda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdik. Iqtisodiyotimiz yangidan shakllandi, bozor munosabatlari, ijtimoiy himoyani kengaytirdik, qonun ustuvorligini mustahkamladik. Eng muhimi, islohotlarimiz samarasini har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qilmoqda", deya ta'kidladi.

Darhaqiqat, keyingi yillarda hayotimiz tubdan o'zgardi. Buni Orolbo'yining olis ovulida yashab, bolasini bog'chaga kuzatib, o'zi ishiga ketayotgan kelinlar ham, chegaradagi savdo markazida qo'shni davlat fuqarolari bilan bemalol oldi-berdi qilayotgan tadbirkorlar ham birdek tasdiqlaydi.

Yana bir misol: ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlar uzoq yillar jamiyatimizning og'riqli nuqtasi bo'lib keldi. Endi ularning masalasi mahallaning o'zida hal etilyapti. Bu ular qalbidagi ertangi kunga ishonch uyg'otib, cheksiz quvvat bag'ishlayapti, jamiyatning faol a'zosiaga aylantirmoqda.

Umuman, barcha sohadagi yangilanishlar raqam, hisobotlar uchun emas, chin ma'noda inson qadriini ulug'lash uchun amalga oshirildi. Mana shu ishlar natijasida mamlakatimiz iqtisodiyoti ishonchli va barqaror o'sishda davom etmoqda. Buni dunyo hamjamiyati va nufuzli xalqaro tashkilotlar ham e'tirof qilmoqda. Xususan, 2025-yil tariximizda birinchi marta yalpi ichki mahsulot qiymati 145 milliard dollardan oshdi.

Albatta, bu yurtimizning qanchalik katta imkoniyatlarga ega ekanini ko'rsatadi. Ayni paytda yanada balandroq marra olishga undaydi. Shu bois, Prezidentimiz "Bundan ikki yil oldin O'zbekiston — 2030" strategiya-sini qabul qilganimizda yalpi ichki mahsulot hajmini 2030-yilgacha 160 milliard dollarga yetkazishni belgilab olgan edik. Ko'rib turibsizlar, mavjud salohiyatimiz, bugungi islohotlarimiz, tadbirkorlarimizning faolligi, xorijiy sheriklarimiz bilan hamkorligimiz o'sib borayotgani hisobiga bu marraga 2026-yilning o'zida bemalol erisha olamiz", dedi.

Tan olish kerak, bu mustaqil O'zbekiston tarixidagi eng katta iqtisodiy o'sish bo'ldi.

Umuman, Murojaatnomada barcha sohaga oid shu kabi marralar, kelgusi rejaralar belgilab olindi. Bu yangiliklar tahlilining har biri alohida katta maqolaga mavzu bo'ldi. Xususan, mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bor kosmik sohada sun'iy yo'ldosh va mamlakatimiz fuqarosi bo'lgan birinchi o'zbek kosmonavtini fazoga uchirish bo'yicha ishlar boshlangani ma'lum qilindi. Maqsadimiz — dekabr oyi tahlili bo'lgani bois, Murojaatnoma bilan bog'liq fikrlarimizni yil nomiga oid mulohaza bilan rivojlantirishni ma'qul ko'rdik.

Davlatimiz rahbari buyuk maqsadga erishishda mahalla tizimining o'rni va ta'siri beqiyos ekanini ta'kidlab, "Mahalla tinch va ahil bo'lsa, jamiyatimiz tinch va hamjihat bo'ladi. Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz yuksaladi", dedi. Buning hayotiy isbotini mamlakatimizdagi o'zgarishlar misolida ko'rib turibmiz. Birgina misol, "mahalla yetiligi" tizimi yo'lga qo'yilgach, barcha masala o'sha joyning o'zida hal etila boshladi. Bu jamiyatimizda ertangi kunga ishonchni mustahkamlab, bunyodkorlik uyg'usini yuksaltirdi. Bir so'z bilan aytganda, mahalla ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga yechim beradigan tom ma'nodagi institutga aylandi.

Endi mahallaning bu mavqeini yangi bosqichga olib chiqish maqsad qilingan. Zero, barqaror iqtisodiyot jamiyatida yuksak tafakkurni ham uyg'otishi zarur. Ya'ni turli fikr va qarashlarni Vatan, xalqimiz manfaati yo'lida birlashtirish kerak. Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili aynan shunga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, dekabr oyi ichki va tashqi siyosatda qator quvonchli voqealar bilan yodimizda qoldi. Ana shulardan biri O'zbekiston va AQSH yetakchilarining telefon orqali muloqoti bo'ldi. Prezidentlar oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosining borishini, shuningdek, O'zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlari yanada rivojlantirish istiqbollarini batafsil ko'rib chiqdi. Muloqotda xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Shu ma'noda, ko'p tomonlama hamkorlik, jumladan, "C5+1" formatining ahamiyati ta'kidlandi.

AQSHning biz bilan faol hamkorlikka kirishishi mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlarni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Yangi bozor, beqiyos imkoniyatlar taqdim etadi. Umuman, davlatlarimiz hamkorligi ko'p qirrali ekanini bilan ham ahamiyatli. Xususan, keyingi yillarda turli darajada samarali aloqalar tizimlari tus oldi. Konstruktiv siyosiy muloqot rivojlanmoqda, faol parlamentlararo almashinuvlar amalga oshirilmoqda. Xususan, xavfsizlikni ta'minlash, terrorizm, ekstremizm va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish borasida samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Umuman, yangi O'zbekiston uchun 2025-yil tashqi siyosatda ham yangi uflarni ochgan yil sifatida tarixga zarhal harflar bilan muhrlandi. Bunga Prezidentimizning Yaponiyaga tashrifi misolida yana bir karra guvoh bo'ldik.

Prezidentimizning 19-20-dekabr kunlari Yaponiyaga rasmiy tashrifi hamda o'tkazilgan

“Mamlakatimiz yetakchisining dekabrda faoliyati hududlarga tashrif bilan ham yodda qoldi. Jumladan, Prezidentimizning Jizzaxga tashrifi nafaqat viloyat ahli, balki butun o'zbekistonliklar uchun esda qolarli voqealarga boy bo'ldi.

oliy darajadagi muloqot va uchrashuvlar, xalqaro miqyosdagi tadbirlar davlatlarimiz hamkorligini butunlay yangi bosqichga olib chiqishi bilan tarixiy ahamiyat kasb etdi. Tashrif yangi O'zbekiston siyosatida yaxshi an'anaga aylanib ulgurgan quvonchli voqea bilan boshlandi. Ya'ni Tokio shahrida Prezidentimizni Yaponiyada mehnat qilayotgan va tahsil olayotgan vatanodoshlarimiz qizg'in kutib oldi. Davlatimiz rahbari ular bilan samimiy suhbatlashdi. Bu suhbat barchaga birdek ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Mana shu ko'tarinkilik, ishchanlik kayfiyati tashrif davomida erishilgan yutuqlarda yana bir karra o'zini ko'rsatdi. Prezidentimiz tashrif davomida Tokioda bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo + Yaponiya" muloqotining birinchi sammitida ishtirok etdi.

"Markaziy Osiyo +" muloqoti O'zbekistonning xalqaro maydonda nufuzi oshib, mintaqamiz hal qiluvchi kuchga aylanib borayotganini yana bir karra tasdiqladi. Muloqot davomida Tokioda bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo + Yaponiya" muloqotining birinchi sammitida ishtirok etdi. "Markaziy Osiyo — Yaponiya" raqamli xabi — raqamli yechimlar, sun'iy intellekt, "buyumlar interneti", kibernetika va innovatsion iqtisodiyot sohalarida ko'p tomonlama hamkorlik platformasini yaratish taklifi ilgari surildi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari "Markaziy Osiyo + Yaponiya" muloqoti sammiti doirasida ko'p tomonlama biznes forumida ishtirok etdi. E'tiborlisi, tashrif odatdagidek tig'iz ish kunini tashkil etdi. Jumladan, Tokioda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichining muzokaralari bo'lib o'tdi. Qolaversa, davlatimiz rahbari turli darajadagi uchrashuv va qabullar o'tkazdi. Xususan, Yaponiyaning yetakchi kompaniyalari, moliya institutlari va biznes uyushmalari rahbarlari bilan uchrashdi. Maqsad esa bitta: xalq farovonligi, yurt taraqqiyoti uchun yangi

eshiklarni ochish, avvalgi kelishuvlarni yangi bosqichga olib chiqishdir.

Davlatimiz rahbari uchun dam olish kunlarisiz o'tgan mana shunday tig'iz ish haftasida Yaponiya safari Rossiya amaliy tashrifga ulanib ketdi. Prezidentimiz 21-dekabr kuni Sankt-Peterburg shahrida Oliy Yevroosiyo iqtisodiy qo'shnavining navbatdagi yig'ilishida kuzatuvchi davlat rahbari maqomida ishtirok etdi.

Prezidentimiz ushbu yig'ilishda ham qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, o'zaro tovar ayirboshlashda savdo to'siqlarini bosqichma-bosqich bartaraf etish muhimligini ta'kidladi. Texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya va fitosanitariya standartlariga yondashuvlarni uyg'unlashtirish uchun MDH va YOII institutlari faoliyatini muvofiqlashtirishni kuchaytirish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Shu ma'noda, O'zbekiston yetakchisi ortiqcha tartib-taomillarni bartaraf etish va talablarni birlashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish taklifini bildirdi. YOII mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish mamlakatimiz tashqi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanini ta'kidladi.

Mamlakatimiz yetakchisining ana shu xalqparvarlik siyosatini 12-dekabr kuni Ashxobod shahrida bo'lib o'tgan Tinchlik va ishonch xalqaro forumida ishtirok etish uchun Turkmanistonga tashrifi misolida ham ko'rdik. Prezidentimiz ushbu forumda nutq so'zladi, global siyosiy jarayonlarga oqilona baho berdi. Shunday murakkab vaziyatda qanday yo'l tutish borasida yana yangi va istiqbolli tashabbuslarni ilgari surdi. Shu orqali O'zbekiston tinchlik, teng diplomatik hamkorlikka asoslangan ma'rifiy siyosatida qat'iy ekanini yana bir karra tasdiqladi.

Davlatimiz rahbari Toshkentda ijodiy jamoalar, olimlar va adiblar ishtirokida "Madaniyatlar muloqoti" deb nomlangan qo'shma xalqaro gumanitar forumni tashkil etish tashabbusini ilgari surdi. Shuningdek, ta'lim, madaniyat va volontyorlik harakati sohalaridagi tashabbuslarni birgalikda amalga oshirish orqali yoshlarni tinchlik va ishonch jarayonini mustahkamlashga jalb etishga yo'naltirilgan "Yoshlar tinchlik va ishonch yo'lida" mintaqaviy dasturini joriy etish tashabbusi bildirildi. Umuman, Turkmaniston safari ham mamlakatimiz tashqi siyosatida alohida o'rin tutadigan kelishuv, istiqbolli suhbat, uchrashuv va muzokaralar bilan yodda qoldi.

Paragvay Respublikasi Prezidenti Santyago Penya rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi. Tashrif dasturiga muvofiq, oliy darajadagi muzokaralar o'tkazildi. O'zbekiston va Paragvay Prezidentlari qo'shma bayonot imzoladilar. Shuningdek, yetakchilar huzurida O'zbekistonning JSTga qo'shilishi doirasida bozorga kirish masalalari bo'yicha ikki tomonlama muzokaralar yakunlangani to'g'risidagi bayonnoma hamda Tashqi ishlar vazirlari o'rtasidagi siyosiy maslahatlashuv

mexanizmini yo'lga qo'yish to'g'risida o'zaro anglashuv memorandumini imzolandi.

Qolaversa, Paragvay yetakchisi Xalqaro avtomobil federatsiyasi Bosh assambleyasida va federatsiya shafeligidagi o'tkazilgan musobaqalar g'oliblarini taqdirlash marosimida ishtirok etdi. So'zimiz avvalida "ACWA Power" rahbarining e'tirofini eslagan edik. Ushbu haqli e'tirof 5-dekabrda bo'lib o'tgan "Barqaror energetika — Yangi O'zbekistonning kelajak sari ishonchli qadami" mavzusidagi anjumanda yangragan edi. Tadbirda qator xalqaro tashkilotlar vakillari, hamkor xorijiy davlatlar mas'ullari, jumladan, Birlashgan Arab Amirliklari energetika va infratuzilma vaziri Suhayl al-Mazruiy, Turkiya Respublikasi energetika va tabiiy resurslar vaziri Alparslan Bayroqdog, Ozarbayjon Respublikasi energetika vaziri Parviz Shabbazov, Qirg'iz Respublikasi energetika vaziri Taalabayek Ibrayev, shuningdek, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki, Islom taraqqiyot banki va boshqa moliya institutlari, dunyoning yirik tarmoq kompaniyalari rahbarlari, investorlar ishtirok etdi.

Anjuman doirasida qariyb 11 milliard dollarlik 42 ta energiya ishlab chiqarish, saqlash quvvatlari va boshqa infratuzilma inshootlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Yana 21 ta shunday inshoot qurilishiga start berildi. Umuman, mintazam o'tkazib kelinayotgan ushbu anjuman jadal rivojlanib borayotgan yangi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyatga ega. Chunki hayotimizni energiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mamlakat yetakchisining tashabbusi bilan dunyoning yetakchi kompaniyalari va ishlabarmonlar doirasi bilan bu boradagi izchil hamkorlik energetika masalalariga yechim bo'lyapti.

Tan olish kerak, uzoq yillar sohaga deyarli e'tibor berilmadi. Mavjud quvvatlar ham turlicha qarashlar, ziddiyatli holatlar sabab so'roq ostida qolgan edi. Keyingi yillardagi islohotlar tufayli bugun nafaqat O'zbekiston, balki butun mintaqamizga xalqaro energiya bozorida istiqbolli hudud sifatida qaralmogda. Shu kabi hayotiy haqiqatlar Muhammad Abunayyan "Yangi O'zbekistonning asosiy energiya manbai — bu siz, hurmatli Prezident!", deganida qanchalik haq ekanini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz yetakchisining dekabrda faoliyati hududlarga tashrif bilan ham yodda qoldi. Jumladan, Prezidentimizning Jizzaxga tashrifi nafaqat viloyat ahli, balki butun o'zbekistonliklar uchun esda qolarli voqealarga boy bo'ldi.

So'nggi yillarda Jizzax viloyati mamlakatdagi sanoati eng tez o'sayotgan hududga aylandi. Zero, viloyatda keyingi sakkiz yilda 6,5 milliard dollarlik investitsiya loyihalari ishga tushirildi. Shuning 45 foizi sanoat hissasiga to'g'ri keladi. Jizzaxda yiliga 175 ming avtomobil ishlab chiqarish quvvati yaratildi. Shu tariqa faqat qishloq xo'jaligiga ixtisoslashib qolgan viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli tubdan o'zgardi.

Birgina misol, qisqa muddatda Zomin, Forish, Arnasoy tumanlari va Jizzax shahrida

Tashrif doirasida davlatimiz rahbari ko'plab yangi loyihalar, istiqbolli iqtisodiy quvvatlar bilan tanishdi. Ijtimoiy inshoot va manzillarni ko'zdan kechirdi. Tig'iz ish kuni va juda samarali o'tgan tashrif davomida mamlakat yetakchisi oddiy odamlar bilan uchrashishga ham vaqt topdi. "Ko'k saroy" savdo va xizmat ko'rsatish majmuasida yurtdoshlarimiz bilan samimiy muloqot qildi.

Mamlakatimiz yetakchisining xalqimizga yaqinligi, doim yurtdoshlarimizning dardi bilan yashashi Sirdaryo viloyatiga tashrif davomida yana bir karra ko'zga tashlandi. Sirdaryo poytaxtimizga eng yaqin hudud. Bu unga logistik va boshqa iqtisodiy jihatlardan ustunlik beradi. Qolaversa, tabiiy imkoniyatlari bilan ham ajralib turadi. Shunga qaramay, u eng qoloq viloyatlar qatoriga tushib qolgandi. Keyingi yillardagi o'zgarishlar sirdaryoliklar hayotida ham ijobiy ko'rsatkichlarni keskin oshirdi. Jumladan, so'nggi 8 yilda viloyatga 4 milliard dollar investitsiya kiritildi. Shu davrda 187 ta yirik quvvat ishga tushirildi. Qolaversa, 120 ming yangi ish o'rni ochildi. 50 ga yaqin yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Natijada sanoat hajmi 4 trillion so'mdan 25 trillion so'mga yetdi.

Yana bir muhim raqam: ilgari dotsatiya olgan Guliston, Yangiyer shaharlari, Boyovut, Mirzaobod, Sayxunobod, Sirdaryo va Xovos tumanlari o'z xarajatini o'zi qoplash darajasiga chiqdi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan viloyat salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladigan qator yangi loyihalarga asos solindi. Jumladan, Sirdaryo tumanida 122 million dollarlik avtomobilsozlik loyihasi ishga tushadigan bo'ldi. Qozog'iston bilan hamkorlikda Sirdaryo tumanida Markaziy Osiyo xalqaro sanoat kooperatsiyasi markaziga start berildi. Ushbu markaz hududida qiymati 300 million dollarlik 14 ta sanoat korxonasi 2026-yilning birinchi choragi yakunigacha ish boshlaydi. Muhimi, 2026-yilda yana 720 million dollarlik 40 ta yangi loyiha joylashtiriladi. Bu kabi raqamlarni esa yana uzoq saqlash mumkin.

Guliston shahridagi umumiy ovqatlanish shoxobchalaridan birida gaz balloni portlashi oqibatida bir necha yurtdoshimiz jarohat olgan edi. Davlatimiz rahbari Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Sirdaryo viloyat filialiga borib, tan jarohati olgan fuqarolar davolanayotgan palatalarga kirib, ulardan xabar oldi, oila a'zolari bilan suhbatlashdi.

Bundan tashqari, Guliston shahri Bo'ston mahallasidagi bunyodkorlik ishlarini borib ko'rdi. 2025-yil obod mahallaga aylangan hududdagi barcha ko'p qavatli uylar ta'mirlandi. Mahalla markazining yangi binosi foydalanishga topshirildi.

Prezidentimiz mahalla faollari, nuroniylar va yoshlar bilan samimiy muloqot o'tkazdi. Uchrashuvda barcha hududlarda quyi bo'g'indagi muammolarni hal etish, mahallalarni obod qilish va aholining turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar samarasi Sirdaryoda ham o'z aksini topayotgani ta'kidlandi.

Shuningdek, Prezidentimiz poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi bunyodkorlik ishlarini bilan tanishdi. O'sha kuni Toshkent shahrini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha kelgusi vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazdi. Bu tashrif ham boshqalari kabi davlatimiz rahbarining oddiy odamlar bilan samimiy suhbatini bilan yodda qoldi.

Ochig'i, dekabr oyi yurtimizda ahamiyatli voqealarga boy bo'ldi. Ularni qisqacha izohlasak ham bitta maqolada qamrab olish mushkul. Maqola so'nggida ulardan ba'zilarini keltirib o'tmoqchimiz. Jumladan, Yoshlar Paraosiy o'yinlarida jasorat va matonat sohibi bo'lgan sportchilarimiz 125 oltin, 77 kumush va 52 bronza medalni qo'lga kiritib, ishtirokchi davlatlar orasida eng yuqori natijani qayd etdi.

Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni arafasida soha vakillari bilan uchrashuv o'tkazildi. Ulardan bir guruhi davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Qolaversa, mamlakat yetakchisi qator soharlar rivoji bo'yicha taqdimot, takliflar bilan tanishib, qonun hujjatlarini qabul qildi.



“YIL AYOLI” E’TIROFI SABR VA QIYINCHILIKLARIMNING MUKOFOTI

Bir vaqtlar uyi yo‘qligi tufayli ikki yoshli farzandini onasiga tashlab, turmush o‘rtog‘i bilan chet elga ishlashga ketgan oddiy ayol edim. Boshimizdan ko‘p qiyinchiliklar o‘tdi, hammasiga sabr qildik. O‘zga yurtda yurib ko‘cha tozalagan paytlarim ham bo‘ldi. Keyinroq bepul uy va oziq-ovqat bilan ta‘minlagani uchun chiqindilarni qayta ishlash zavodida ishladik. U yerdagi yoqimsiz hidga chidab ishlash, yashash oson emasdi. Ammo tezroq pul to‘plab, uyga qaytish ilinjida hammasiga chidadik.

Gulmira JUMAYEVA,
Kattaqo‘rg‘on shahridagi
“Anvarjon Biznes Invest”
MCHJ rahbari,
“Yil ayoli — 2025” milliy tanlovi
Gran-pri g‘olibi

Zavodda mehnat qilish barobarida ish o‘rgandim. Zavod rahbari ayol kishi edi. Unga havas qilib, men ham yurtimizga qaytgach, shunday korxona ochishni niyat qilganman. 2010-yillarda O‘zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash amaliyoti deyarli yo‘q edi. Niyatim xolis ekan: havas, harakat, mehnat ortidan o‘ylaganlarimga erishdim. 2015-yilda yurtimizga qaytib, ana shu ishga kirishib ketdim. Dastlab 20 eshak arava bilan ish boshladim. Yon-atrofda qishqirayotgan xotin-qizlarni jalb qilib, avvaliga ko‘chalardan chiqindilarni yig‘ib, saralab, zavodlarga topshirdim. Bundan yaxshigina foyda qolayotganini ko‘rgach, ishmini kengaytirdim. 2016-yilda chiqindilarni qayta ishlaydigan “Anvarjon Biznes Invest” MCHJ korxonasi faoliyatini yo‘lga qo‘ydim.

Shu ishini boshlaganimga ham o‘n yil bo‘libdi. O‘tgan yillarda faqat mehnat qildim, sabr bilan ishladim. Tadbirkorligim ayol yangi O‘zbekiston islohotlari boshlangan davrga to‘g‘ri kelgani ham menga katta yordam berdi. Yurtimizda tadbirkorlarga berilgan imtiyozlardan to‘g‘ri foydalandim. Hozirgacha har bir farmon va qarorda ko‘rsatiladigan imtiyozlarni o‘rganib, ularni qo‘llashga intilaman. Boisi, bular biz uchun, ishbilarmonlarning yanada rivojlanishi uchun berilayotgan ekan, unumli foydalanishimiz kerak.

Qisqa muddatda orzumdagi zavodni qurishga ham erishdim. Buning uchun davlatimiz tomonidan 4 gektar yer nol balansda berildi. Hozir ana shu yerda chiqindini qayta ishlash, kuniga 30-35 tonna granulada shaklidagi tayyor mahsulot chiqaramiz. Korxonalarimizda so‘nggi 5 yilda 178 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Asosiy xaridorlarimiz plastmassa mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalardir.

Zavodga Xitoydan olib kelingan eng so‘nggi rusumdagi texnologiyalar o‘rnatilgan. Hozir 93 ta texnikamiz bor, zavodimiz Samarqanddagi gigant korxonalardan. Ayni paytda 426 ishchi-xodim doimiy mehnat qiladi. Nafaqat o‘zim va oilam, balki ana shu xodimlarning har biri yaxshi sharoitda, tinch va xursand yashashi uchun doim harakatdaman. Qolaversa, chiqindilarni qayta ishlash orqali viloyatimiz ekologiyasi yaxshilanishi, hududda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ko‘rsatkichi ortishi, odamlar bandligini ta‘minlashga hissa qo‘shayotganimdan quvonaman.

Shunday qilib oddiy, kambag‘al ayoldan katta tadbirkorga aylandim. Inson sabr bilan mehnat qilsa, istaganiga erishar ekan. Buni o‘zim misolimda ishonch bilan ayta olaman. Hech kim menga ishonmaganda ham shu kunlar kelishi, hammasi yaxshi bo‘lishi, men ham boshqalar kabi to‘kis hayot kechirib, yaxshi sharoitlarda yashashimga ishonganman. Bugun shularning barchasi uchun shukur qilaman.

2025-yil hayotimda eng unutilmas, omadli, muvaffaqiyatlarga boy yil bo‘ldi.

Hayotimni
o‘zgartirgan yil

www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uznews

yuz.uznews

Bugunning gapi

Mamlakatimizda keyingi yillardagi keng ko‘lamli islohotlar, ayniqsa, ijtimoiy sohadaqi tub o‘zgarishlar O‘zbekiston taraqqiyotining mutlaqo yangi bosqichini belgilab bermoqda. Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga navbatdagi Murojaatnomasi ham aynan shu jarayonlarning mantiqiy davomi sifatida jamiyat hayotida katta siyosiy-ijtimoiy voqeaga aylandi.



IJTIMOIY ADOLAT, FAROVONLIK VA BARQARORLIK DASTURI

Murojaatnomada nafaqat kelgusi yil uchun harakatlar dasturi, balki yangi O‘zbekistonda shakllanayotgan ijtimoiy davlat modeling aniq konseptual ifodasi sifatida ham ahamiyatlidir. Davlatimiz rahbari nutqida keltirilgan har bir raqam, har bir ustuvor vazifa ortida inson manfaati, qadri, hayot sifati va ijtimoiy himoyasi masalasi muajassam. Shu ma‘noda, Murojaatnomani faqat iqtisodiy yoki boshqaruv hujjati sifatida emas, balki ijtimoiy adolat, farovonlik va barqarorlikka qaratilgan keng qamrovli dastur sifatida qabul qilish o‘rinli.

Unda ilgari surilgan ijtimoiy g‘oyalar parlament zimmasiga yanada katta mas‘uliyat yuklaydi. Chunki bugun parlament faqat qonun qabul qiluvchi institut emas, balki islohotlarning joylarda qanday amalga oshayotganini nazorat qiluvchi, aholining kayfiyati va ehtiyojlarini davlat siyosatiga olib kiruvchi muhim ko‘priki vazifasini bajarmoqda.

Ayni paytda nafaqat yurtdoshlarimiz, balki xalqaro jamoatchilik e‘tibori markazida bo‘lgan ushbu Murojaatnomadagi ijtimoiy masalalar, avvalo, inson hayotining eng asosiy sohalarini qamrab oladi: ish bilan bandlik, kambag‘allikni qisqartirish, ta‘lim va tibbiyot sifati oshirish, mahallaning jamiyatdagi o‘mini mustahkamlash, yoshlar va xotin-qizlar salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy xavfsizlik va adolati muhimi ta‘minlash. Bu yo‘nalishlarning barchasi o‘zaro chambarchas bog‘liq. Ularni alohida-alohida emas, balki yagona ijtimoiy tizim sifatida ko‘rishni talab qiladi.

So‘nggi to‘qqiz yilda erishilgan natijalarga e‘tibor qaratilsa, islohotlar samarasini har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qilayotganining guvohi bo‘laymiz. Bu, aslida, yangi O‘zbekistonda davlat siyosatining asosiy mezonini ifodalaydi: **islohotlar qo‘g‘ozda yoki hisobotlarda emas, balki odamlar hayotida namoyon bo‘lmoqda.**

Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, Murojaatnomada ijtimoiy sohada ilgari surilgan vazifalar tasodifiy yoki epizodik xarakterga ega emas. Ular mamlakatimizda shakllanayotgan yangi ijtimoiy muhitning mazmun-mohiyatini ochib beradi. Buning mohiyati shundaki, davlat fuqarolar uchun munosib turmush sharoiti yaratish, ijtimoiy himoya va teng imkoniyatlarni ta‘minlash majburiyatini oladi, fuqarolar esa, o‘z navbatida, faollik, mehnatsevarlik va qonunga itoat orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadi.

Murojaatnomada alohida e‘tibor qaratilgan masalalardan biri ijtimoiy siyosatning mahallaga tushirilishidir. Bu boradagi yondashuv tamoman yangi bosqichni anglatadi. Ilgari ijtimoiy dasturlar markazdan turib ishlab chiqilar, joylarda esa ular ko‘pincha formal tarzda amalga oshirilardi edi. Bugun esa kambag‘allikni qisqartirish, ish o‘rinlari ochish, ijtimoiy yordam ko‘rsatish kabi vazifalar bevosita mahallada hal etilayotgani davlat boshqaruvidagi muhim sifat o‘zgarishidir.

2026-yilning **“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”** deb e‘lon qilinishi ham ijtimoiy siyosat markazida inson va uning



Ulug‘bek INOYATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasidagi fraksiya rahbari

yashash muhiti turganini yaqqol ko‘rsatadi. Mahalla endi faqat urf-odat va yaxshi qo‘shnchilik munosabatlari makoni emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, tarbiya, bandlik va ijtimoiy himoyaning asosiy maydoniga aylanmoqda.

Parlament deputatlari uchun ham Murojaatnomada belgilangan ijtimoiy vazifalar yangi ish uslubini taqozo etadi. Endi deputat faqat qonun muhokamachisi emas, balki o‘z okrugidagi har bir mahallaning muammosini bilib, uni hal etishga mas‘ul shaxs sifatida faoliyat yuritishi shart. Davlat byudjeti hisobidan deputatlar ixtiyoriga ajratilayotgan mablag‘lar ham aynan shu mas‘uliyatni yanada oshiradi.

Murojaatnomada ko‘tarilgan masalalar nafaqat bugun, balki kelgusi yillar uchun ham ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi. Endi bu g‘oyalarning hayotga tatbiq etilishi, avvalo, parlament, ijro hokimiyati va mahalliy darajadagi barcha mas‘ul tuzilmalarning hamjihat va mas‘uliyatli faoliyatiga bog‘liq.

Ijtimoiy masalalar orasida eng markaziy o‘rinlardan birini kambag‘allikni qisqartirish va aholini daromadli qilish siyosati



egallaydi. Bu bejiz emas. Chunki kambag‘allik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy adolat, inson qadri, jamiyat barqarorligi va davlatga ishonch masalasi hamdir. Shu ma‘noda, kambag‘allikka qarshi kurash yangi O‘zbekistonda faqat ijtimoiy yordam berish bilan cheklanib qolmay, keng qamrovli institutsional islohotlarga tayanayotgani bilan ahamiyatli.

Raqaqlar bu siyosatning natijadorligini yaqqol ko‘rsatadi. Zero, so‘nggi yillarda 8,5 milliondan ziyod fuqaroning kambag‘allikdan chiqarilgani, kambag‘allik darajasining 8,9 foizdan 5,8 foizga tushirilgani, minglab mahallalarning “kambag‘allikdan xoli hudud” maqomiga ega bo‘lgani oddiy statistika emas. **Bu raqamlar ortida millionlab insonlarning hayotidagi real o‘zgarishlar, ish topgan oilalar, o‘z daromadiga ega bo‘lgan yoshlar va ayollar taqdiri turibdi.**

Deputat sifatida saylov okruglaridagi holatni kuzatib ekanmiz, bu raqamlarning joylarda real ifodasini ko‘ramiz. **Ilgari ijtimoiy yordam deganda faqat nafaqa yoki bir martalik moddiy ko‘mak tushunilgan bo‘lsa, bugun davlat siyosati kambag‘al insonni faol iqtisodiy subyektki aylantirishni maqsad qilgan.** Bu esa mutlaqo yangi yondashuvdir.

“Deputatlik faoliyati markazida inson turishi kerak. Qabul qilinayotgan har bir qonun, har bir byudjet qarori, har bir nazorat tadbiri inson hayotiga qanday ta‘sir qilayotgani nuqtayi nazaridan baholanishi shart. Bu yangi O‘zbekiston parlamentarizmining asosiy mezoni bo‘lishi lozim.”

Asosiy maqsad odamlarni doimiy daromadli qilish. Bu tamoyil ijtimoiy siyosatda paradigma o‘zgariganini anglatadi. **Davlat kambag‘allik oqibatlarini bilan emas, balki uning ildiz sabablari bilan kurashmoqda.** Bandlik, kasbga o‘qitish, tadbirkorlikka keng yo‘l ochish, mikroloyiha orqali mahallaning o‘zida ish o‘rinlari ochish ana shu yondashuvning amaliy ko‘rinishidir.

Xususan, Murojaatnomada mahallalarda sanoat va xizmat ko‘rsatish loyihalarini rivojlantirish, har bir mahallada o‘nlab mikroloyiha amalga oshirish, mahalla birligi va hokim yordamchilari orqali moliyaviy resurslarni to‘g‘ridan to‘g‘ri aholiga yetkazish tizimiga katta

Asosiy maqsad odamlarni doimiy daromadli qilish. Bu tamoyil ijtimoiy siyosatda paradigma o‘zgariganini anglatadi. **Davlat kambag‘allik oqibatlarini bilan emas, balki uning ildiz sabablari bilan kurashmoqda.** Bandlik, kasbga o‘qitish, tadbirkorlikka keng yo‘l ochish, mikroloyiha orqali mahallaning o‘zida ish o‘rinlari ochish ana shu yondashuvning amaliy ko‘rinishidir.

Xususan, Murojaatnomada mahallalarda sanoat va xizmat ko‘rsatish loyihalarini rivojlantirish, har bir mahallada o‘nlab mikroloyiha amalga oshirish, mahalla birligi va hokim yordamchilari orqali moliyaviy resurslarni to‘g‘ridan to‘g‘ri aholiga yetkazish tizimiga katta

Asosiy maqsad odamlarni doimiy daromadli qilish. Bu tamoyil ijtimoiy siyosatda paradigma o‘zgariganini anglatadi. **Davlat kambag‘allik oqibatlarini bilan emas, balki uning ildiz sabablari bilan kurashmoqda.** Bandlik, kasbga o‘qitish, tadbirkorlikka keng yo‘l ochish, mikroloyiha orqali mahallaning o‘zida ish o‘rinlari ochish ana shu yondashuvning amaliy ko‘rinishidir.

e‘tibor qaratildi. Bu **ijtimoiy siyosatni markazdan joylarga emas, balki joydan markazga qarab shakllantirish metodiga o‘tishni anglatadi.**

Parlament a‘zosi sifatida bu jarayonda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi oldida ham yangi vazifalar paydo bo‘layotganini alohida qayd etmoqchiman. Kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlar samaradorligini ta‘minlash uchun qonunlar ijrosini qat‘iy nazorat qilish, joylarda mablag‘larning maqsadli sarflanishiga e‘tiborni kuchaytirish, ijtimoiy himoya tizimidagi ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kambag‘allikni qisqartirishning yana bir muhim jihati ijtimoiy himoya tizimining mahallaga tushirilgani bilan bevosita bog‘liq. “Yettilik” instituti orqali qarorlar qabul qilinishi, ehtiyojmand oilalar bilan ishlashda har bir oilaning holatini individual o‘rganish amaliyoti joriy etildi. Bu tizim ijtimoiy yordamning haqiqatan manzilligini ta‘minladi, suiste‘mol qilish holatlarini keskin kamaytirdi.

Ma‘lumki, kambag‘allikni qisqartirish siyosati faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan o‘lchanmaydi. U jamiyatda ijtimoiy adolat hissini mustahkamlaydi, fuqarolarning davlatga ishonchini oshiradi, ijtimoiy keskinlikni yumshatadi. Bu esa barqaror taraqqiyot uchun mustahkam poydevor yaratadi.

2026-yil uchun belgilangan maqsadlar, ya‘ni bir million fuqaroni doimiy ish bilan ta‘minlash, yuz minglab oilalarni kambag‘allikdan chiqarish, kambag‘allik darajasini yanada pasaytirish davlat siyosatining davomli va tizimli ekanini ko‘rsatadi. Bunday vazifalarning bajarilishi nafaqat ijro hokimiyati, balki parlament, fuqarolik jamiyati institutlari va mahalliy jamoalarning hamjihat harakatini talab etadi.

Shu ma‘noda, kambag‘allikni qisqartirish siyosati yangi O‘zbekistonda ijtimoiy adolati ta‘minlash yo‘lidagi eng muhim yo‘nalishlardan biridir. Bu siyosat insonni passiv yordam oluvchi emas, balki o‘z taqdiri uchun mas‘ul, mehnat qiluvchi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shuvchi faol fuqaroga aylantirishni ko‘zda tutadi. Aynan shu yondashuv mamlakatimizda farovon va barqaror jamiyat barpo etishning eng ishonchli kafolatidir.

Aslida, mahalla jamiyatimizning asrlar davomida shakllangan noyob ijtimoiy instituti. U faqat hududiy birlik emas, balki qo‘shnchilik, o‘zaro yordam, ma‘naviy tarbiya va ijtimoiy nazorat makoni bo‘lib kelgan. Yangi O‘zbekistonda mahalla ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning faol subyekti ham aylanmoqda.

Murojaatnomada deputatlarga o‘z okrugidagi muammolarni hal qilish uchun aniq moliyaviy resurslar ajratilishi, har bir deputatning tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanishi belgilandi. Bu deputatning jamiyat oldidagi mas‘uliyatini yanada oshirib, uni mahallaning haqiqiy vakiliga aylantiradi.

Mahalla tizimi orqali ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning yana bir muhim jihati jamoatchilik ishtirokini kuchaytirishdir. Murojaatnomada keltirilgan ijtimoiy so‘rov natijalariga ko‘ra, aholining 90 foizdan ortig‘i o‘zini mahalla jamoasining bir qismi deb hisoblashi tasodifiy emas. Ushbu holat mahallaning jamiyatda ijtimoiy kapital manbai ekanini, odamlar o‘rtasida ishonch va birlamlikni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi.

Mahalla va tuman byudjetlarini mustahkamlashga qaratilgan choralar ham ijtimoiy barqarorlik nuqtayi nazaridan muhim. Daromadning bir qismini tumanlarda qoldirish, ortiqcha byurokratik shtatlarni qisqartirish orqali tejalgan mablag‘ni aholi manfaatiga yo‘naltirish mahalliy boshqaruvning moliyaviy jihatdan mustaqilligini ta‘minlaydi. Bu esa mahalladagi muammolarni tezkor va samarali hal qilish imkonini beradi.

Deputatlik faoliyati markazida inson turishi kerak. Qabul qilinayotgan har bir qonun, har bir byudjet qarori, har bir nazorat tadbiri inson hayotiga qanday ta‘sir qilayotgani nuqtayi nazaridan baholanishi shart. Bu yangi O‘zbekiston parlamentarizmining asosiy mezoni bo‘lishi lozim.



TA'LIMGA KIRITILGAN SARMOYA – KELAJAK KAFOLATI

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida islohotlarning eng muhim va asosiy mezonini aniq-ravshan belgilab qo'yildi: "islohotlar natijasi har bir inson hayotida namoyon bo'lishi kerak". Ushbu tamoyil insonning hayotdan rozi bo'lib, munosib va farovon yashashini ta'minlashga qaratilgan barcha yangilanishlarning g'oyaviy o'zagi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu ma'noda, davlatimiz rahbari ilgari surgan 6 ta strategik ustuvor yo'nalish inson qadriini yuksaltirishga qaratilgan yagona, o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tizimni tashkil etib, izchillikni ta'minlashga xizmat qiladi.



Ixtiyor BEKOV,
yuridik fanlar doktori,
professor

Mamlakat taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini ta'minlashning eng samarali yo'li ta'lim ekanini Murojaatnomada yana bir bor qat'iy ta'kidlandi. Chunki yoshlarga maqsadli va sifatli ta'lim-tarbiya bermay, milliy tafakkurni isloh etmay turib, iqtisodiyot, sanoat yoki ijtimoiy sohani barqaror rivojlantirish mumkin emas. Bu haqiqatni jaddid bobolarimiz ham yurakdan anglagan. Ular milliy istiqlol va taraqqiyotga ma'rifat, zamonaviy ilmhunar va muntazam ta'lim orqali erishishga ishongan. "Millatning taraqqiyoti aning avval muntazam maktablardan boshlanur" degan tamoyil jaddid ma'rifatparvarlarining hayotiy e'tiqodiga aylangani bejiz emas.

Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etish yo'lida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Abdurauq Fitratning "Najot yo'li" asarida aytilgan fikr bugun ham dolzarbligini yo'qotgani yo'q: "Bolalar suvga o'xshaydilar, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning o'qib-axloqini qabul qiladilar". Demak, qanday muhit yaratask, qanday ta'lim bersak, kelajak ham shunday bo'ladi.

Murojaatnomada alohida urg'u berilgan yana bir muhim masala kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratishdir. Bugun jahonda raqamlashtirish, sun'iy intellekt va ilg'or texnologiyalar ta'sirida mehnat munosabatlari, ish o'rinlarining shakli va mazmuni tubdan o'zgarib qoldi. Yaqin yillarda ko'plab an'anaviy kasblar avtomatlashtirilishi, ayni paytda esa mutlaqo yangi malaka va kompetensiyalarga ehtiyoj ortishi kutilmoqda. Shu bois, mamlakat mehnat bozori kasb, malaka, texnologiya va ta'limni o'zaro uyg'unlashtirgan yagona tizim sifatida ishlab chiqarish strategik vazifa sifatida maydonga chiqmoqda.

Bu yondashuvning ilmiy-amaliy asoslari xalqaro statistik ma'lumotlarda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, BMT ma'lumotlariga ko'ra, insonning maktabda o'qigan har bir qo'shimcha yili kelgusidagi daromadini o'rtacha 7 foiz oshiradi. Ta'lim iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayveri bo'lishi bilan birga, aholi salomatligining yaxshilanishi, jinoyatchilik kamayishi, ijtimoiy faollik ortishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hozir rivojlanayotgan mamlakatlarda boshlang'ich ta'lim qamrovi 91 foizga yetgani o'qitish sohasidagi islohotlar global ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, hali qiladigan ishimiz ko'p. Ta'lim ijtimoiy adolat, sog'lom avlod va barqaror taraqqiyotning hal qiluvchi omili, Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda "hayot-mamot masalasi"dir.



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ
TILIDA HAM
O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!



O'qitish bilan ishlab chiqarishni birlashtirgan ushbu model yoshlarning mehnat bozoriga moslashuvini tezlashtiradi, ish beruvchi bilan bitiruvchi o'rtasida ishonchli ko'priklar yaratadi. Asosiysi, talaba nazariyadan ham, amaliyotdan ham uzilmaydi. Ya'ni nazariya va amaliyot uyg'unligi ta'minlanadi. Bugun minglab yoshlarning o'qish bilan bir vaqtda daromad topayotgani shu tizimning hayotiylikini isbotlab turibdi.

Bugun avtomobilsozlik, "yashil" energetika, qurilish, transport, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, turizm, servis va axborot texnologiyalari sohaslarida 70 mingga yaqin yigit-qiz dual ta'lim asosida o'qish bilan bir vaqtda pul ishlab topmoqda. Ushbu tizimni yanada kengaytirish maqsadida texnikumlar va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlik qo'llab-quvvatlanib, dual ta'limni samarali joriy etgan korxonalarga imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari berish va rag'batlantiruvchi mexanizmlarni qo'llash nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, 2026-yildan boshlab texnikumlarda ta'lim olayotgan 100 ming o'quvchiga stipendiya berish tartibi joriy etilib, yuqori natijaga erishayotganlar qo'shimcha rag'batlantiriladi. Bu esa kasbiy ta'limga qiziqishni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Dual ta'lim orqali olingan bilim nazariya va amaliyot uyg'unligiga asoslangani uchun yosh mutaxassis mehnat bozoriga tayyor holda kiradi, ya'ni qayta o'qitishga ehtiyoj kamayadi, ishlab chiqarish samaradorligi esa tezroq oshadi.

Boshqa jihatdan, mazkur tizim ijtimoiy barqarorlik va adolatni kuchaytiradi. Yoshlar o'qish davridayoq mehnat qilib, qonuniy daromad topish orqali ijtimoiy himoyaga ega bo'ladi, ishsizlik va norasmiy mehnat xavfi kamayadi. Ish beruvchilar ta'lim jarayoniga bevosita jalb etilgani sababli kadr tayyorlash iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashadi.

Davlatimiz rahbarining joriy yildagi tegishli farmoni asosida yuridik ta'lim vaqtining yarmini amaliyotda o'tash tartibining belgilanishi yurtimizda yuridik kadrlar tayyorlash tizimining tub burilish nuqtasi bo'ldi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad yosh mutaxassisni hayotga tayyorlash, ya'ni faqat huquqiy bilim berish emas, balki muammolari ko'ra bilish, tahlil qilish, adolat mezonlarini anglash va inson taqdiri uchun javobgarlik hissinii shakllantirishga qaratilgan. Shu ma'noda, dual ta'lim — kasb orqali shaxsni tarbiyalash, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Oliy ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikka oid qarorlar ham Prezidentimiz strategik tashabbuslarining xalqchil ekanini namoyon etadi. Jizzax politexnika institutining nufuzli xorijiy universitet boshqaruviga berilishi yoki Yaponiya bilan hamkorlikda yangi OTM tashkil etilishi mahalliy ta'limni global ilm-fan makoniga olib chiqishga qaratilgan strategik yondashuvdir.

Bu esa, o'z o'rinda, milliy oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlarining zamonaviy talablar asosida takomillasuvi, professor-o'qituvchilar salohiyatining oshishi va ilmiy tadqiqotlarning xalqaro standartlarga moslashuvini ta'minlaydi. Qisqasi, milliy oliy ta'limni "mahalliy tayyorlovchi"dan "global qiymat yaratuvchi" tizimga aylantiradi.

Hozir rivojlangan mamlakatlar YAIMning 50-70 foiziga yangi texnologiyalardan foydalanish orqali erishayotganining o'zi barcha sohani raqamlashtirishning ahamiyatini ko'rsatib turibdi.

Tadqiqotlar raqamli XXI asrda kelgusida kasb va mutaxassislarning 80 foizi bevosita STEAM fanlari va eng yangi texnologiyalar bilan bog'liq bo'lishini ko'rsatmoqda.

Ilg'or, rivojlangan davlatlarda ilmiy tadqiqot institutlari innovatsiyalarni tijoriylashtirish borasida yirik korporatsiyalarga raqobatbardosh bo'lishga intilmoqda. Misol uchun, Germaniyaning "Volksfagen" konserni innovatsiyaga jahonning obro'li ilmiy markazlaridan biri — Garvard universiteti umumiy moliyaviy aktivlari miqdorida, ya'ni 13,5 milliard sarflagan.

Bitiruvchilar va ish beruvchilarni bog'lovchi raqamli ekotizim ham g'oyat dolzarb ahamiyatga ega. Bu yondashuv orqali talabalar o'z qobiliyati va akademik natijasiga mos ishini tez topadi, korxonalar esa malakali kadrlarni aniq va shaffof mexanizm orqali jalb qiladi. Shubhasiz, bunday kompleks yondashuv kadrlar oqimini optimallashtirish, ishsizlikni qisqartirish va inson kapitalidan samarali foydalanishni ta'minlaydigan barqaror institutsional yechim sifatida baholalanadi.

Shu bois, joriy yilda O'zbekistonda tashkil etiladigan texnopark, kichik sanoat zonalar, hududiy klaster va logistika markazlarining ilmiy-tadqiqot markazlari bilan integratsiyasini rivojlantirish ilmiy hamjamiyat oldidagi dolzarb vazifalardan.

Prezidentimiz ta'limni huquqiy davlat va adolatli jamiyatni barpo etishning eng ishonchli yo'li sifatida belgilagani bu yilgi Murojaatnomada yana bir bor yaqqol namoyon bo'ldi. Mazkur yondashuv ta'lim tizimini iqtisodiyot ehtiyojlari bilan bevosita uyg'unlashtirgan, hayotga yaqin va samarali mexanizm sifatida qayta tashkil etishni ko'zda tutadi. Natijada yoshlar nazariy bilim bilan cheklanib qolmay, real malaka va kasb egallashga yo'naltiriladi, mehnat bozori esa zamon talablariga mos va barqaror tarzda shakllanadi.

2025-yil 31-dekabr, 273-son



Nuqtayi nazar



Gulnoza ISMOILOVA,
"El-yurt umidi" jamg'armasi
ijrochi direktori

Prezidentimizning Oliy Majlisga va xalqimizga Murojaatnomasi har yilgi an'anaviy, mamlakatimizning kelgusi yil va o'rta muddatli istiqboldagi rivojlanish yo'nalishini aniq belgilab beruvchi strategik "yo'l xaritasi"dir. Binobarin, unda erishilgan yutuqlar sarhisob qilinib, ustuvor yo'nalishlar belgilab olinadi.

O'ZBEKISTON ILM-FAN VA YUQORI TEXNOLOGIYALARGA E'TIBOR QARATMOQDA

Joriy yilgi Murojaatnomada professional, texnologik jihatdan savodxon, global fikrlaydigan hamda jamiyat oldida chuqur mas'uliyat his qiladigan yangi avlod kadrlariga talab shakllantirilishiga alohida e'tibor qaratildi. Global vaziyat murakkabligiga qaramay, 2025-yil sezilarli natijalar yili bo'lgani ko'rsatib berildi. Bandlik oshishi, kambag'allik kamayishi, millionlab fuqarolar uchun daromad manbalari kengayishi, inklyuziv ta'lim rivojlanishi va ijtimoiy infratuzilma mustahkamlanishi — bularning barchasi islohotlar tizimli samara berayotganidan dalolat. Bu raqamlar zahirida davlat siyosati markaziga qo'yilayotgan inson qadri va farovonligini ta'minlash maqsadi mujassam.

Murojaatnomada texnologiyalar va innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiy rivojlanish alohida o'rin egalladi. Yuqori qo'shilgan qiymatli o'sish modeliga o'tish, sohalarni raqamlashtirish, sun'iy intellektni joriy etish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish mavhum gaplar emas, balki tegishli inson kapitalini talab qiladigan aniq yo'nalishlar ekanini alohida qayd etildi. Shu o'rinda savol tug'iladi: bu vazifalarni kim bajaradi?

Prezidentimizning javobi aniq — bilimli va kasbiy mahoratli yoshlar. Murojaatnomada ta'kidlanganidek, mehnat bozori shiddat bilan o'zgarib qoldi. Demak, davlat axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, muhandislik, "yashil" energetika, tibbiyot, transport, kosmik soha bo'yicha mutaxassislarni oldindan tayyorlashi zarur. Birinchi sun'iy yo'ldoshni uchirish va birinchi o'zbek kosmonavtini tayyorlash ishlari boshlangani haqidagi xabar nafaqat ilmiy yutuq ramzi, balki yoshlarga kuchli turki bo'ldi: O'zbekiston ilm-fan va yuqori texnologiyalarga e'tibor qaratmoqda.

"El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyati ham ushbu ustuvor yo'nalishlar bilan bevosita bog'liq. Axborot

texnologiyalari va raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, muhandislik, tibbiyot, davlat boshqaruvi, fundamental va amaliy fanlar, shuningdek, kosmosga oid yangi sohalar uchun kadrlar tayyorlash jamg'armaning asosiy strategik yo'nalishlaridan.

Murojaatnomada belgilangan yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikni kengaytirish alohida ahamiyatga ega. Sukuba milliy universiteti bilan birgalikda aniq fanlar bo'yicha yangi oliy ta'lim muassasasini tashkil etish to'g'risidagi qaror akademik diplomatiya davlat rivojlanish strategiyasining bir qismiga aylanayotganining yorqin namunasidir. "El-yurt umidi" jamg'armasi uchun bu yo'nalish ustuvor ahamiyatga ega: biz yoshlarni chet elga o'qishga yuborish bilan birga tizimli hamkorlik, qo'shma dasturlar, ikki tomonlama diplomlar va tadqiqot loyihalarini yo'lga qo'yamiz, bilim va boshqaruv madaniyatining mamlakatimizga o'tkazilishini ta'minlaymiz.

Prezidentimiz mehnat bozorining yangi tuzilmasini shakllantirish, kasb-hunar ta'limi, texnikumlar, dual dasturlar va erta kasbga yo'naltirishni rivojlantirish zarurligini alohida ta'kidlandi. Shu nuqtayi nazardan, jamg'arma ta'lim, texnologiya va kelajak iqtisodiyoti o'rtasida bog'lovchi bo'g'in bo'la oladigan yuqori intellektual sohahiyatga ega kadrlarni tayyorlashda o'z o'mini ko'moqda.

Inson kapitali yordamchi element emas, milliy raqobatbardoshlik va barqarorlik asosidir. "El-yurt umidi" jamg'armasi o'zgarishlarga moslasha oladigan, yangi O'zbekiston taraqqiyotiga yo'nalish beradigan mutaxassislar avlodini shakllantirishga intilmoqda. Ishonchimiz komilki, belgilangan maqsadlar barcha taraqqiyot institutlari uchun mo'ljal bo'lib xizmat qiladi. 2026-yil esa mamlakat va fuqarolar farovonligi yo'lida bilim, texnologiya va davlat mas'uliyatini yanada chuqurroq uyg'unlashtirish yili bo'ladi.

MEN UCHUN ENG CHIROYLI MUKOFOT

2025-yil hayotimdagi eng omadli, betakror yil bo'ldi. Qo'shaloq bayramlar, ko'p yillik orzularim ro'yobi, yana qator muvaffaqiyatlarni ayni shu yil tuhfa etdi.



Madinabonu MUHAMMADRIZOYEVA,
Zulfiya nomidagi davlat
mukofoti sobihi

To'qqiz yil avval ilk bor Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga nomzodlik uchun hujjat topshirganimda sahnada bir xil libosda saf tortib turadigan Zulfiyaxonim qizlariga juda havas qilardim. Chunki u hech bir davlatda yo'q, eng chiroyli mukofot deb bilaman. Har yil 8-mart arafasida Zulfiyaxonim qizlari tantanavor taqdirlanayotganida onajonim "Qizim, qani edi seni ham shu sahnada ko'rsam", der edi. "Nasib qilsa ko'rasiz, Prezidentimiz yoshlarga barcha sharoitni yaratib beryapti. Men ham astoydil harakat qilsam, albatta, shunday yutuqqa erishaman", deb va'da berganman. Qator yillar mukofot nasib etmasada, maqsadimdan qaytmadim. Butun salohiyatimni she'riyat va tarjimonlik yo'nalishiga bag'ishladim.

Har yili tanlovning respublika bosqichiga chiqdim. Badiiy tarjima bo'yicha Zomin seminari va boshqa xalqaro anjumanlarda qatnashdim. 2023-yili o'tkazilgan Zomin seminarining respublika bosqichi sovrindori bo'ldim. O'zingma o'zim tinimay "Hali shunday kun keladi: dadajonimning ismi katta sahnada tilga olinadi. Meni ham tantanavor ravishda sahnaga taklif qilishadi. Onajonim esa baxtli onalar qatorida bo'ladi", derdim. Aynan shu istaklarim maqsadimga yetishim, jamiyatda o'z o'mimni topishimda menga qanot bo'ldi. 2025-yilda onajonim Prezidentimizdan Zulfiya nomidagi davlat mukofotini olayotganimni o'z ko'zi bilan ko'rib, chindan ham dunyodagi eng baxtli onalardan biri bo'lganini aytdi. Davlatimiz rahbarining "Ota-onangizga, ustozlaringizga rahmat", degan minnatdorlik so'zlari esa keyingi orzularim uchun kuch bag'ishladi.

Intilishlarim va muvaffaqiyatim misolida o'zingma o'xshagan ko'plab qizlarni ko'raman. Ularga orzu va maqsadni baland olgan insonning muvaffaqiyatga erishishiga butun ko'inot yordam beradi degim keladi. Ezgu niyat yo'lidagi hech qanday harakat beiz ketmaydi. Aks holda, men Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilangina cheklanib qolardim. Bolaligimda "Katta bo'lsang, kim bo'lasan?" deb so'raganida "diplomat bo'laman", der edim. Bu yil shu orzum ham ro'yobga chiqdi. O'zbekiston biznes diplomatiyasi uyushmasiga xalqaro muxbir etib

tayinlandim. Universitetda iqtisodiyot yo'nalishida o'qiyotganim bois, O'zbekiston milliy iqtisodiy hamkorlik uyushmasining Toshkent shahri vakili bo'ldim va viloyat vakillari uchun tashkil etilgan o'quv kursini muvaffaqiyatli tamomladim.

Yakunlanayotgan yilning yana bir yorqin jihati shundaki, o'zim orzu qilgan shaxsiy kutubxonani ochdim. Chet el adiblari va o'zbek adabiyotining yirik vakillari asarlarini tarjima qilish baxtiga muvassar bo'ldim. Zero, bolaligimdan tarjimaga qiziqqanman. Tarjimalarim dunyo yuzini ko'rsa, derdim. Bu niyatim ham ro'yobga chiqyapti.

Chet tilini o'rganish bugun yoshlarning eng zarur hayotiy ehtiyojiga aylandi. Shu ma'noda, ingliz tilidan tashqari koreys tilini ham qiziqib o'rganyapman. Yoshlar ingliz tilini tez va oson o'rganishi uchun yangi metodlar asosida "New Time New English" nomli kitob tayyorlab, nashr ettirdim. O'zbekcha Vikipediya a'zosi ekanim, zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha ham chuqur bilimga ega bo'lishimda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar muhim o'rin tutadi. Ulardan unumli foydalanib, AT akademiyalaridan birida yoshlarga ingliz tilini o'rgatib kelayapman.

Bu yilda, shuningdek, Oliy Majlis huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari safidan joy oldim. Keyingi maqsadim — menga bildirilgan ishonchni oqlab, magistratura tahsilini xorijda davom ettirish.

G‘aroyib suhbatdosh

“G‘aroyib suhbatdosh” rukini ochilganida dastlab gazetamiz uchun Haqiqat bilan suhbat uyushtirgandik. Keyinroq, nokamtarlik bo‘lsa ham, O‘zim bilan qizigan guruhning mavjudligi etildi. Bugun esa kuzatayotganimiz — 2025-yilning dillidagilarni bilgimiz keldi. Zero, “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” deb nom olgan yilda barcha jabhada qo‘lga kiritilgan ulkan natijalar xalqimiz farovonligi va qadrini oshirishga, Vatanimizning xalqaro maydondagi obro‘si yuksalishiga, keng e‘tirol etilishiga omil bo‘ldi.

— Mana, kiprik qo‘g‘uluk fursat o‘tib, safaring ham qaridi. Axir kechagina seni tantana va shodu xurramlik bilan kutib olgandik. Bugun esa qadrdonlardek kuzatish arafasidamiz. Bizdan xafa yo xursand ekaningni bildirib ketsang degandik...

sodiqliqi namunasi ekanini ta’kidladi. Kun tartibida Markaziy Osiyo oldida turgan dolzarb iqlim muammolari muhokama qilindi. Ekologik barqarorlik, “yashil” iqtisodiy taraqqiyot va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda mintaqaviy hamkorlik masalalari ko‘rib chiqildi.



ORZULARI OYDIN ODAMLAR ORASIDA

— “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” nomini olgan 2026-yilga havasim kelyapti, axir u men ko‘rmagan o‘zgarishlarga guvoh bo‘lishi aniq. Ishonaman, u mendan boshlangan sur‘atga shiddat, jur‘atga jur‘at qo‘shadigan munosib davomchi sifatida kirib kelyapti. Shijoatli, mehnatsevar O‘zbekiston xalqi ham uni munosib kutib olishga tayyor. Akalarim — avvalgi yillar aytganidek, hozir odamlar ancha o‘zgargan, ularda har bir ish, yumush va faoliyatga daxldorlik hissi kuchaygan. Insoniyat, kishilik jamiyati uchun muhim bo‘lgan yana bir fazilatni ham kuzatdim — bu yurt kishilaridagi jipslashuvga intilish, bir jonu tan bo‘lib amaliy ishlarga kirishish.

Bu esa kelayotgan yilda yanada ulkan natija va ko‘rsatkichlar ta’minlanishini, bularning hammasi xalq hayotida yaqqol aks etishini kafolatlaydi. Mana shulardan xursandman. Umuman, jamiyatning “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” sifatida meni shod qilgan jihatlari ko‘p. Ular ancha.

— Ha, nomingdan kelib chiqib, e’tiborni ko‘proq shu mavzuga qaratganimiz ma’qul. Umuman, noming mazmunidan rozimisiz? Keng ko‘lamda qilingan ishlardan ko‘ngling to‘ldimi?

— Mening Yer atalmish sayyoraga tashrifimning ilk sanasida Prezidentingizning O‘zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigi e’lon qilindi. Unda 2025-yilga berilgan nomdan asosiy maqsad — inson va tabiat muvozanatiga asoslangan tizim yaratish ekanini aytdi. Shuningdek, tabrikda yil davomida alohida e’tibor qaratiladigan sohalar birma-bir keltirilib, dolzarb va kechiktirib bo‘lmas vazifalar sanab o‘tildi. Mening ko‘nglimni shod qilgani — bu ishlar ijrosiga kirishish ko‘p kuttiradi. Jadal tus olgan jarayon natijalari ham tez orada o‘zini ko‘rsatadi.

Qaysi birini aytay? Gapni xalqaro miqyosga chiqqan, jahon hamjamiyati katta qiziqish bilan kuzatgan tashabbuslardan boshlay qolaman. Aprel avvalida dunyo nigohi Samarqandga qaratildi. Sharq darvozasi bo‘lgan qadimiy kentda “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti va Iqlim forumi o‘tkazildi. Forumda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston Respublikalari rahbarlari, shuningdek, Yevropa Ittifoqi, BMT, xalqaro molliya institutlari va yetakchi ekologiya tashkilotlari vakillari, 80 dan ortiq davlat delegatsiyalari ishtirok etdi. Uning yalpi sessiyasida O‘zbekiston Prezidenti nutq so‘zlandi. Davlat rahbari nutqining avvalida forumning xalqaro miqyos va ishtirokchilarning nufuzi jahon hamjamiyati barqaror taraqqiyotining eng dolzarb masalalariga samarali yechim izlashda birgalikda sa’y-harakatlar olib borishga



(2025-yil bilan gurung)

BMT Bosh Assambleyasi O‘zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan “Markaziy Osiyo ekologik muammolar oldida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo‘lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash” rezolyutsiyasini bir ovozdan qabul qilgan. Unda O‘zbekiston Prezidentining qator tashabbuslari, jumladan, Markaziy Osiyo uchun “yashil” kun tartibi va uning mintaqada barqaror rivojlanishga ko‘maklashishdagi roli alohida qayd etilgan hamda Samarqandda Xalqaro iqlim forumini o‘tkazish tashabbusi qo‘llab-quvvatlangan.

“Markaziy Osiyo global iqlim muammolariga duch kelmoqda: umumiy farovonlik uchun birlashish” mavzusidagi forum ekologik barqarorlik, “yashil” iqtisodiy rivojlanish va iqlim barqarorligi bo‘yicha muloqotni ilgari surish uchun yuqori darajadagi platformaga aylandi. Asosiy e’tibor mintaqaviy va xalqaro hamkorlikka qaratildi. Iqlim forumi qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish, suv resurslarini kompleks boshqarish, biologik xilma-xillikni saqlash va barqaror shahar taraqqiyoti kabi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha ekspert panellari, yalpi sessiyalar va siyosiy muloqotlar uchun maydon vazifasini o‘tadi.

Muhokamaning asosiy mavzularidan biri global miqyosdagi ekologik falokatning yaqqol namunasi bo‘lgan Orol dengizi inqiroziga qaratildi. Mutaxassislar va hukumat vakillari zarar ko‘rgan hududlarda yerlarni tiklash, cho‘llanishga qarshi kurashish va iqlim o‘zgarishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini kamaytirish bo‘yicha yechimlarni ko‘rib chiqdi.

Tadbir yakunlari bo‘yicha Samarqand forumining yakuniy hujjati — “Yashil” rivojlanishning mintaqaviy konsepsiyasi taqdimoti o‘tkazildi. U iqlim o‘zgarishi sohasida Markaziy Osiyo davlatlarining yagona mintaqaviy qarashlarini shakllantirishga asos bo‘ldi. Unda yetakchi xalqaro tashkilotlarning mintaqadagi ekologik muammolarni hal qilish borasidagi yondashuvlari bayon qilingan.

Yana bir misol. 5-dekabr kuni “Barqaror energetika — Yangi O‘zbekistonning kelajak sari ishonchli qadami” mavzusidagi milliy ahamiyatga ega xalqaro anjuman chog‘ida davlat rahbari yangi energetika quvvatlari va infratuzilma obyektlarini ishga tushirib,

navbatdagilarining qurilishiga start berdi. Mazkur sana mamlakat energetika sohasi tarixidan zarhal harflar bilan o‘rin olgan kun bo‘lib qoldi. Yangi energetika quvvatlari va infratuzilma obyektlari soni — 42 ta. Bu quvvatlar asosan, zamonaviy, ekologik toza va qayta tiklanuvchi muqobil manbalarga asoslangan.

Ular to‘liq quvvat bilan ishlay boshlaganidan keyin yiliga 15 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Shu zaylda kelasi yildan O‘zbekistonda “yashil” energiyaning ulushi 23 milliard kilovatt-soatga yetadi. Tiklanadigan muqobil manbadan foydalanish yo‘lga qo‘yilishi tufayli 7 milliard metr kub tabiiy gaz tejalandi. Bu — atmosferaga chiqayotgan zararli moddalar 11 million tonnaga kamayadi deganidir.



Xalqaro anjumanda davlat rahbari kelasi 5 yilda minglab sanoat va infratuzilma obyektlarini ishga tushirib, yuqori daromadli ish o‘rinlarini ochish mo‘ljallanayotganini e’lon qildi. Sanoat ishlab chiqarishi yuksalib borayotgani, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni muttasil oshayotgani, shuningdek, yangi ko‘p qavatli uy-joylar (800 mingdan ortiq xonadon), 500 megavatt quvvatga ega data-markaz qurish kabi rejalr elektr energiyasiga ehtiyojini oshiradi.

Bu ishlar 2025-yilda, ya’ni mening guvohligimda ko‘rilgan chora-tadbirlarning bir qismi xolos. Mendan keyin kelayotgan yillar esa ularning rivoj topishi, ulkan hamda salmoqli samara va natijalar berayotganini ko‘rish imkoniga ega bo‘ladi.

— Sen zaminimiz uzra qanot yozgan kezlaring nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyoda suv taqchilligi bo‘y ko‘rsata boshladi. Olimlar, mutaxassislar buning yechimini topishga safarbar etilgan. Bir oz bo‘lsa ham yaxshi tomonga o‘zgarish ko‘rdingmi?

— Amudaryo va Sirdaryo Markaziy Osiyo-niing asosiy suv manbasidir. Ushbu katta suv o‘zanlari mintaqadagi barcha davlat hududidan oqib o‘tadi. Undan hamijhat foydalanish har doim muhim bo‘lgan. Shu bois, tarixda turli nizolar bo‘lishiga qaramay, mintaq xalqlari suvdan kelishib foydalanagan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan bugun gidroenergetika tarmog‘ida hamkorlik rivojlandi. Bu qo‘shni davlatlar uchun ham muhim yo‘nalishdir. Mintaqa gidroenergetika salohiyatidan samarali foydalanib, birgalikda boshqarish maqsadida kelgusi yili Qirg‘iziston va Qozog‘iston bilan “Qambarota GES-1” loyihasini moliyalashtirishga kirishilishi belgilandi.

Zero, O‘zbekiston elektr energiyasi quvvatining katta qismini gidroenergetika tashkil etadi. Xorijiy investorlar ko‘magida bu tarmoq ham keyingi yillarda taraqqiy etib bormoqda. Joriy yilda 400 megavattli gidroelektr stansiyalari ishga tushirildi. Jumladan, Norin kaskad gidroelektr stansiyasining 38 megavattli ilk gidroelektr stansiyasi to‘liq mahalliy mahsulotlardan foydalanigan holda qurildi. Ushbu istiqbolli loyiha yiliga o‘rtacha 1025 million kilovatt-soat ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega.

O‘zbekistonda Jahon banki bilan hamkorlikda dunyoda ilk innovatsion “iCRAFT” loyihasi ishga tushirildi va katta natijalarga erishilmoqda. Jumladan, shu yilning o‘zida 17 ta yirik sanoat korxonasi “yashil” energetika bo‘yicha xalqaro sertifikatlar tizimiga o‘tdi. Kelgusi ikki yilda bunday korxonalar sonini 100 taga yetkazish belgilangan.

Ilgari energiya yetishmovchiligi O‘zbekistonning eng asosiy og‘riqli masalalaridan biri, zaif tomoni bo‘lgan bo‘lsa, xorijlik investorlar bilan manfaatli hamkorlik asosida energetika tarmog‘ida amalga oshirilayotgan islohotlar bu zaiflikni katta qudratga aylantirmoqda. Bunda, albatta, davlatning oqilona siyosati hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotir. Buni xalqaro tashkilotlar vakillari ham e’tirof etmoqda. Xususan, 5-dekabrda tantanali marosimda Saudiya Arabistonining “ACWA Power” kompaniyasi boshqaruvchi raisi Muhammad Abunayyan mamlakatning investitsiyalarni jalb qilish va energetika sohasidagi faoliyatini yuksak baholab, O‘zbekiston rahbariga “Butun dunyo investorlar bilan ishlashni sizdan o‘rganishi kerak”, deya ta’kidladi. Shuningdek, avvalroq, Osiyo taraqqiyot banki rahbari Masato Kanda Italiyadagi yirik moliyaviy anjumanlardan birida O‘zbekistonni xususiy investitsiyalar hisobiga energetika sohasini muvaffaqiyatli transformatsiya qilayotgan namunali davlatlardan biri sifatida e’tirof etdi. Ushbu e’tiroflar bu borada mamlakat to‘g‘ri yo‘ldan borayotgani, yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida yangi ufqnlarni kashf etayotganidan darak beradi.

— Mamlakatimizda sening noming bilan bog‘liq qator tadbirlar, anjumanlardan tashqari, katta-katta dasturlar, muhim qoralar va rasmiy hujjatlar ham amaliyotga joriy etilmoqda.

— Ha, bu kundes ravshan masala. Masalan, Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga erishishni ta’minlash yo‘lida davlat rahbarining 2019-yil 30-oktyabrda farmoni bilan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi tasdiqlangan edi.

2025-yil 30-yanvarda esa “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmon qabul qilindi. Shuningdek, 2025-yil 15-maydagi qaror bilan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining

ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi tasdiqlangan.

Yoki 19-noyabr kuni O‘zbekiston rahbari “Ekologiya va turizm soharida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Farmonga muvofiq Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi sifatida qayta tashkil etildi. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining asosiy vazifalaridan tashqari, Ekologiya qo‘mitasi “Chiqindidan xoli hudud”, “Toza havo”, “Yashil makon”, “Eko madaniyat” va “Bio meros” umummilliy loyihalarini amalga oshirish uchun mas’ul hisoblanishi belgilandi.

Bundan tashqari, ushbu sanada yana bir muhim hujjat imzolandi. “O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorda ham ko‘plab dolzarb vazifa va chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Xalq salomatligini ta’minlash, inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan bu kabi sa’y-harakatlar, albatta, samara beradi.

— Yuqoridagi birinchi savolning ikkinchi qismiga javob bermading...

— Qaysi? Ha, tushundim, sizlardan xafamanni yoki yo‘qmi, shuni gapirmadim-a? To‘g‘risi, xafa emasman, ammo ko‘nglim to‘lmagan bir-ikki jihatlar ham bor. Aytavermaymi?

— Albatta-da, buni 2026 ham eshitib qo‘ysa, foydadan xoli bo‘lmas. Masalaning shu jihatlari alohida e’tibor qaratar...

— Ayrim odamlar hamon tejakorlik koni foyda ekanini anglab yetmayapti. Isrofgarlik ko‘p. To‘ylar, mehmondorchiliklardagi dabbaba, suv, energiya, gazdan foydalanishda oldi-ortiga qaramaslik, tabiiy boyliklardan yashirincha foydalanish holatlari dilimni vayron qilgan paytlar ko‘p bo‘ldi.

Yoki havoning ifloslanish darajasi ortib ketgan kezlarni bir esga olaylik. O‘sha kunlari Prezident huzurida bir yig‘ilish bo‘ldi. Unda ekologik barqarorlik, jumladan, chiqindilarni qayta ishlash masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi, Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha maxsus komissiyaning hisoboti tinglandi. Havo ifloslanishiga sabab bo‘layotgan manbalarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘nalishidagi chora-tadbirlar muhokama qilindi. Issiqxonalar, qurilish maydonlari, avtotransport vositalari va noqonuniy faoliyat yurituvchi obyektlar yuzasidan o‘tkazilgan tekshiruvlar, shahar bo‘ylab ko‘chalarni namlash, ariqlarni tozalash, favvoralarni ishga tushirish kabi barqarorlashtirish tadbirlari samarasi tahlil qilindi. Kuchaytirilgan tartibda reydlar va

profilaktika ishlarini muntazam yo‘lga qo‘yish belgilandi.

2025-yil 24-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Hujjatda Toshkent shahrida atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish maqsadida nazoratni kuchaytirish va iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish maqsadi aks etgan.

Aslida, davlat rahbari doim mutasaddilarga nafaqat poytaxtda, balki hududlarda ham bu yo‘nalishdagi chora-tadbirlarni tizimli davom ettirish, aniqlangan qonunbuzarliklarni tezkor bartaraf etish, havoga ta’sir ko‘rsatuvchi barcha omillarni qat’iy nazoratga olish kerakligini uqitirib keladi.

Xulosam shuki, agar odamlar o‘zi tashabbus ko‘rsatib, me’yor va chegaralarga amal qilsa, qisqa muddatda xalqning turmush sifati oshadi. Taraqqiyot shunday yuksaladiki, bugun bizni xursand qilayotgan natijalar uning soyasida qolib ketadi. Chunki davlat rahbari, mutasaddilar juda katta marralarni belgilagan. Keng ko‘lamli islohotlar, bundoykorliklar, inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan sa’y-harakatlardan kutilayotgan samara bugungidan-da zalvorli.

Umuman, mening “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili deb nomlanganin ajo-yib ish bo‘ldi. Kimdir daraxt kesayotganini, yashil tabiatga zarar yetkazayotganini, atrof-muhitga ziyon keltirayotganini ko‘rsam, kapalagim uchadi. Qani endi tilim bo‘lsay, “Hoy odamzod, o‘zingni o‘zing abgor qilma, halokatga yo‘liqtirma”, deya hayqirsam, qo‘lim bo‘lsay, shu ishni qilayotgan qo‘llarga yopishsam...

— Tiling bor shekilli, mana, biz bilan muloqot qilaysan-ku...

— Men tilim bilan emas, dilim bilan gapiryapman. Bu ovozi faqat dila, ko‘ngli, qalbi toza insonlar tinglay biladi. Meni eshitmaydigan o‘sha odamlarning esa yo dila yo’q, yo uqudda. Kelayotgan yangi yil ana shu mudroq qalblarni uyg‘otishi, ularga ham atrofda nimalar bo‘layotgani, xalq va rahbarlar qanday ezgu maqsadlar bilan yashayotganini anglatga olishini istayman. Toki ular ham orzusi oydin odamlar orasidan o‘z o‘rnini topsin.

— Rahmat. Bugun aytadiganimiz esa shu: bizdan rozi bo‘l, 2025-yil! Qadaming qutlug‘ kelsin, 2026-yil!

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Nodir MAHMUDOV gurunglashdi.